XALQ DEPUTATLARI CHUST TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 17 - yanvar VI-54-3-6-89-K/23 Chust tuman hokimligi

Chust tumanida 2023-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkalarini belgilash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig’ini yanada takomillashtirish to’g’risida"gi PF-6121-sonli farmoni, “O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeta to’g’risida’gi O’zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan “O’zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi qonuni (O’RQ-714-son) hamda xalq deputatlar Namangan viloyat Kengashining VI-36-1-6-0-K/23-sonli qarorining ijrosini ta’minlash, tumanda yer uchastkalari va mol-mulkni soliqqa tortishni yanada takomillashtirish, ularni baholash va xisobini yuritishda zamonaviy usullarni joriy qilish, yerva suv resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga hamda O’zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida"gi qonunining 6, 19, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Chust tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig’ini yanada takomillashtirish to’g’risida"gi PF-6121-sonli farmoniga ko’ra, 2023-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi tartibni joriy etishga rozilik berilganligi:

- xalq deputatlari tuman Kengashlari O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy

rivojlanishiga qarab yer solig’i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlarni qo’llagan holda yer solig’i stavkalarini belgilash;

- xalq deputatlari tuman Kengashlariga viloyat xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan yer solig’i stavkalariga qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko’cha kesimida **0,7** dan **3,0** gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish xuquqi berilganligi;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2022-yil uchun xisoblangan soliq summasining **1,3** baravaridan oshmasligi lozimligi;

- 2018-yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i summasi 2022 yil uchun hisoblangan soliq summasining **1,3** baravaridan oshmasligi lozimligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O’zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O’zbekiston Respubliksini Davlat budjeti to’g’risida"gi O’zbekistan Respublikasi qonuni qabul kilinganligi munosabati bilan O’zbekistan Respublikasiga ayrim qonun xujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida"gi Konunining 2-moddasiga muvofiq O’zbekistan Respublikasi Solik kodeksiga kiritilgan o’zgartirishga asosan:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i Chust tumanida qishloq xo’jaligi uchun mo’ljallanmagan yerlar bo’yicha bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaqo’lchamda **19604,199** (o‘n to‘qqiz million olti yuz to‘rt ming bir yuz to‘qson to‘qqiz)) so’m;

3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i (bundan dehqon xo’jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo’jaligi uchun mo’ljallangan yerlar mustasno) Chust tumanida bazaviy soliq stavkasi 1 kv.m. uchun mutloqo’lchamda 188,5 (bir yuz sakson sakkiz so‘m ellik tiyin) so’mda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentabrdagi “Soliq majburiyatini bajarishda tadbirkorlik sub’ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora–tadbirlari to’g’risida”gi PF-6307-sonli farmoniga asosan yuridik va jismoniy shaxslarning 2023-yil uchun yer solig’i stavkalarini belgilash.

5.Hududlarini iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga qarab, soliq yukini kelgusi yilda keskin ortib ketishini oldini olish maqsadida qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun Soliq kodeksida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan jismoniy shaxslar uchun 1-ilovaga muvofiq, yuridik shaxslar uchun 2-ilovaga muvofiq kamaytiruvchi va oshiruvchi kozffisientlar belgilansin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashlari mazkur qarorning 1, 2-ilovalarida belgilangan yer solig’i stavkalariga nisbatan qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun, o’zlarining xududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko’cha kesimida **0,7** dan **3,0** gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlarini kiritish xuquqiga egadirlar.

Bunda, keyingi yil uchun belgilangan maxalliy budjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda oshiruvchi yoki kamaytiruvchi koeffitsient qo’llash, mahalliy budjet daromadlarini oshirish maqsadida faqatgina oshiruvchi koeffitsientlarni qo’llamaslik belgilab qo’yilsin.

7. Tuman moliya bo’limi (A.Umarov) 2023-yil uchun ishlab chiqilgan resurs soliqlarini yanada takomillashtirish bo’yicha soliq siyosatining asosiy yo’nalishlari asosida ish tashkil etsin.

8. Tuman moliya bo’limi (A.Umarov), tuman Davlat soliqinspeksiyasi (N.Maxkamov) "Chust xaqiqati" (Z.Mehmenova), gazetasi tahririyati bilan birgalikda ushbu qaror 1,2-ilovalariga muvofiq soliq stavkalari, soliq solish tartib-taomillari hamda boshqa masalaga oid ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror "Chust xaqiqati" gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman xokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan, tuman hokimining 2022 yil 5 martdagi VI-43-27-6-89-K/22 sonli qarori bekor qilinsin.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi B.Anvarov hamda tuman hokimining birinchi o’rinbosari J.Bahodirov zimmalariga yuklansin.

Tuman hokimi **Б.Хамдамов**